

TARJIMASHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2501-guruh talabasi

Olimova Nozima Qodirjon qizi

E-mail: olimovanozima84@gmail.com

tel: +998330301066

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjimashunoslik sohasida kuzatilayotgan hozirgi eng muhim o'zgarishlar, yo'nalishlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, tarjimada innovatsion g'oyalarni tatbiq etish hamda raqamli texnologiyalarni qo'llashga urg'u berib o'tiladi. Xulosada olimlar tadqiqotlarini tahlil qilgan holda, zamonaviy tarjima sohasiga doir tavsiyalar havola etiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjimashunoslik sohasi, zamonaviy tendensiyalar, innovatsion g'oyalar, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, lingvistik va ekstralingvistik muammolar.

THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TRANSLATION STUDIES

Olimova Nozima Kodirjon qizi – student of group TING 2501

Faculty of Translation, Uzbekistan State World Languages University

E-mail: olimovanozima84@gmail.com tel: +998330301066

Abstract. This article discusses the most important current changes and trends in the field of translation studies. It also emphasizes the implementation of innovative ideas and the use of digital technologies in translation. The conclusion analyzes the

research of scientists and provides normative recommendations for the modern field of translation.

Keywords: translation, field of translation studies, modern trends, innovative ideas, digital technologies, artificial intelligence research, linguistic and extralinguistic problems.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Олимова Нозима Кодиржон кизи – студентка группы TING 2501

Переводческий Факультет,

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: olimovanozima84@gmail.com , тел: +998330301066

***Аннотация.** В статье рассматриваются важнейшие современные изменения и тенденции в области перевода. Особое внимание уделяется внедрению инновационных идей и использованию цифровых технологий в сфере перевода. В заключении анализируются исследования учёных и даются нормативные рекомендации для современной сферы перевода.*

***Ключевые слова:** перевод, область перевода, современный тенденции, инновационные идеи, цифровые технологии, исследования искусственного интеллекта, лингвистические и экстралингвистические проблемы.*

Kirish

Tarjimashunoslikning dolzarb va zamonaviy tendensiyalari orasida bir qancha muhim yo'nalishlar mavjud bo'lib, sun'iy intellekt va texnologiyalarning tarjima jarayoniga integratsiyalashuvi bilan bog'liq. Bulardan sun'iy intellekt (AI) yordamida tarjima, kompyuterda tarjima qilishning (CBT)rivojlanishi, milliy va mintaqaviy

tarjima markazlarining shakllanishi, matnni tahlil qilish, axborot texnologiyalarining integratsiyalashgan holda tarjima jarayonini takomillashtirish, maxsus tarjimalar (texnik, tibbiy, huquqiy) sohasidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima sohasida keng ko'lamda olib borilayotgan tadqiqotlarga yuzlansak, tarjimashunoslik nazariya va amaliyotning uyg'unlashuvidir. Tarjimashunoslik har ikkala jabhada rivojlanib borishi uchun ushbu sohada tarjimaning turli xil muammolari va ularga yechim topishga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshiriladi. Odatda tarjima amaliyotiga aloqador muammolar sirasiga tarjimaning lingvistik, ekstralingvistik muammolari, tarjimon tayyorlash bilan bog'liq masalalar va hokazolarni kiritish mumkin [3, 103 b.].

Asosiy qism

Tarjimashunoslikning zamonaviy, dolzarb tendensiyalari mazkur sohani yanada rivojlantirishga va zamonaviy dunyoning tezkor va global talablariga javob berishga yordam beradi. Bulardan dastlabkisi, sun'iy intellect (AI) yordamida tarjima keng tarqalmoqda.

Kompyuterda tarjima qilish (CBT) va avtomatik tarjima (AT): CBT va AT avtomatlashtirilgan tarjima jarayonining asosiy vositalaridir. Ular tarjima jarayonini tezlashtiradi, ammo insonning muharrirlik va tahrirlovchi nazoratini talab qiladi.

Milliy va mintaqaviy tarjima markazlari: Har bir milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini va talablarini hisobga oluvchi tarjima markazlarining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, ko'plab tillarda ishlaydigan OAV, texnik va axborot mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari uchun foydalidir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKTT) va tarjima: tarjima jarayonini yanada tezlashtirish va samaradorligini oshirish uchun AKTT vositalari keng qo'llanilmoqda. Bular tarjima dasturlari, onlayn tarjima xizmatlari, terminologik ma'lumotlar va glossariylarni o'z ichiga oladi.

Maxsus tarjimaning rivojlanishi: texnik, tibbiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda maxsus tarjimaning dolzarbligi ortib bormoqda. Bu tarjima sohasida mutaxassislik va maxsus terminologiyani talab qiladi.

Tarjimaning lingvistik muammolari deb leksik, grammatik, semantik, stilistik, pragmatik, madaniy muammolariga aytilsa, ijtimoiy-madaniy tajriba, tarixiy psixologik omillar, mentalitet, komunikativ vaziyat, realiya va kontekst bilan bog'liq muammolar ekstralingvistik muammolardir. Ekstralingvistik omillar tilga bevosita bog'liq bo'lmasa ham mazmunni to'g'ri anglash va qayta yaratishda katta rol o'ynaydi.

Tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik(nolisoniy) masalalariga bag'ishlangan tadqiqot R. Shirinovaning "Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi" deb nomlangan dissertatsiyasi hisoblanadi [1,58b.]. Mazkur tadqiqotning maqsadi badiiy tajimada olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi muammolarini konseptual tahlil qilish va adekvat tarjima yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tarjimon tayyorlash bilan bog'liq masalalar doirasida esa olib borilgan tadqiqotlar esa tarjimon kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, dublyaj tarjimoni tayyorlash, sinxron tarjimonlarga e'tibor qaratish hamda xotira va ko'nikmani rivojlantirishga diqqat qiladi. Masalan, I. To'xtasinovning "Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivantlik hodisasi asosida rivojlantirish" deb nomlangan tadqiqot ishi tarjimon tayyorlash, tarjimonning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga bag'ishlanadi[2,69b.].

Xulosa

Tarjimonlikda dolzarb va zamonaviy tendensiyalar tarjimani yanada chuqurroq anglash va chiroyli ma'no chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'tgan asrlarga qaraganda hozirda tarjimashunoslik bilan innovatsion g'oyalar va raqamli texnologiyalarning integrallashuvi natijasida tarjima tez va aniq amalga oshirilmoqda. Biroq frazeologik ibora va kontekstlarni semantik va pragmatik tarjima qilishda hamda

ekstralingvistik masalalarda inson omili nozik ahamiyat kasb etadi. Olimlar esa inson omili ahamiyatini yanada oshirish uchun tinimsiz izlanishlar, tadqiqotlar olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Fil. fan. dok. diss. avtoref. - T.:2017.58b
2. To'xtasinov. I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Ped. fan. dok. diss. avtoref. - T.:2018.69b.
3. Yo'ldoshev U.R. Tarjima nazariyasi. Fil. fan. fal. dok. diss. avtoref-S.:2021 125b.

